

the presentation of materials was conducted in a traditional form, but the students were given information about adults in a foreign language. In mechanics, there are concepts that are similar in meaning, but have different uses, showing different shades of this meaning. Such situations were discussed separately in the report and practical exercises. It has been shown that there is a difference in the use of related concepts such as Speed and Velocity in the first case, we are mainly talking about the modulus of the velocity with a certain value; in the second case, it is a vector quantity that also differs in direction in addition to the modulus). Another obvious example is the translation of the term "(rotating) torque": if torque must be used in a two-dimensional coordinate system, but causes the object to rotate around an axis located in the drawing plane (in three-dimensional space), torque is preferred. Both of these English words are translated as "moment". Using such examples, students gained experience in analytical work with the dictionary when it is necessary to choose the most appropriate words to describe a certain situation. In the study of theoretical mechanics, traditionally, many hours are allocated to independent work of students, and the amount of homework is also very large. Therefore, during the bilingual integrative learning project, the teacher conducts consultations for the students, as well as the traditional learning of the subject in the mother tongue. Consultations are mainly conducted in Uzbek, if necessary, English words are also repeated.

The examination for the full course of theoretical mechanics was written and presented only for solving problems. The teaching science lacks basic theoretical principles and the derivation of the equations is very complicated (the derivation of the Lagrange equation of the second type takes up two pages in a small print textbook and is accompanied by a large number of complex mathematical transformations). For an engineer, we believe it is important to use learned methods to solve specific problems. If the student does not know the theory, he will not be able to solve the problem. Thus, the control of knowledge within the framework of the integrative teaching project in theoretical mechanics was carried out at multiple levels.

References:

1. Krylov E.G. Integrative bilingual education of a foreign language and Engineering disciplines in a technical university. Doc.of Science. Dissertation abstract. 13.00.02. – Yekaterinburg. 2016. -450p.
2. Myxitdinova M.P. It is a way and means of English language teaching for the graduate of the university. Ph.D- Dissertation abstract -Tashkent. 2020.-52 p.
3. D.C.McClelland, (1973). Testing for competence rather than for intelligence. // American Psychologist W. 28, 1-14 p.
4. Western, W. Competence in Education II J. // Curriculum Studies. - 2001. -V.33.- N1.-P. 75-88p.
5. Kazan, H. N. (2023). ENHANCING SPEECH SKILLS IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE LEARNERS THROUGH MEDIA LITERACY. International Journal of Advance Scientific Research, 3(11), 68-76.
6. Sidorenko, E.V. Training of communicative competence in business interaction. // St. Petersburg: Speech, 2006. - 208 p.

INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA SOG‘LOM FIKR YURITISH OMILLARI TAHLILI

Erkaboyeva Nigora Shermatovna

Qo‘qon DPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

dekani, p.f.d., professor

Annotatsiya

ushbu maqolada talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish malakalarini rivojlantirishda va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati, uning tarixiy asoslari, talaba yoshlarning fikrlashni tahlil qilish uchun sog‘lom va nosog‘lom fikrlash turlari, sog‘lom fikrlashning o‘ziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari,



talaba yoshlarni sogʻlom fikr yuritishda pedagogik-psixologik fanlar integratsiyasi ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: fikr, sogʻlom tafakkur, nosogʻlom tafakkur, oʻz-oʻzini anglash, integratsiya, obʻektiv omillar va subʻektiv omillar.

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие навыков здорового мышления у студенческой молодежи и необходимость разработки его инновационных педагогических основ, его исторических основ, здорового и нездорового типов мышления для анализа мышления студенческой молодежи, особенностей здорового мышления. раскрываются психологические особенности, интеграция педагогико-психологических наук в здоровое мышление студентов и молодежи.

Ключевые слова: мышление, здоровое мышление, нездоровое мышление, самосознание, интеграция, объективные факторы и субъективные факторы.

Annotation

In this article, the development of healthy thinking skills in young students and the need to develop its innovative pedagogical foundations, its historical foundations, healthy and unhealthy types of thinking for analyzing the thinking of young students, the characteristics of healthy thinking Pedagogical-psychological features, integration of pedagogical-psychological sciences in healthy thinking of students and young people are revealed.

Keywords: thought, healthy thinking, unhealthy thinking, self-awareness, integration, objective factors and subjective factors.

Bugungi globallashuv sharoitida inson aql zakovati hamda maʼnaviyati jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namayon boʻlib bormoqda. Bu esa oʻz-oʻzidan jahon andozalariga javob bera oladigan, innovatsion taʼlim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tarbiyalash zarurati bilan bogʻliq pedagog kadrlarni yetishtirish muammosini kun tartibiga qoʻymoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi”da xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda oliy taʼlimning ilgʻor standartlarini joriy etish, jumladan oʻquv dasturlarida nazariy bilim olishga yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish, oliy taʼlim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirish asosiy vazifa etib belgilangan.

Xususan, gumanitar va pedagogik yoʻnalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga eʼtiborni kuchaytirish, ppedagogik taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha oʻquv reja va dasturlarini ilgʻor xorijiy tajriba asosida qayta koʻrib chiqish va takomillashtirish, oliy taʼlimda maʼnaviy-axloqiy tarbiya mazmunini kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak maʼnaviy gʻoyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot gʻoya va mafkuralarga qarshi imunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati vujudga keldi.

Insonlarda sogʻlom fikr yuritish muammosining nazariy-tarixiy asoslari qadimgi yozma manbalarda hamda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi sharq mutaffakirlari va jadid maʼrifatparvarlarining asarlarida yoritib berilgan.

Insonning tafakkurini oʻrganish muammosi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib keng oʻrganila boshlanib, insonning fikri tashqi narsalarga, yaʼni “Obʻekt”ga qaratilishi yetarli emasligi, inson oʻzini his tuygʻularini, xatti-harakatlarini boshqarishi yaʼni oʻzini oʻzi yaxshi bilishi kerak. Shu nuqtai nazardan professor Yu.M.Orlov shaxsning oʻzini-oʻzi anglashga, oʻzini-oʻzi boshqarishga qaratilgan fikrlashni tahlil qilish uchun sogʻlom va nosogʻlom fikrlash turini farqlab koʻradi. [Орлов.Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А.В.Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1 - Издание 2-е изд., испровленное, - М.: Солайдинг, 2006-96-с].

Maqolada talaba yoshlarda sogʻlom fikr yuritish malakalarini rivojlantirishda va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati, uning tarixiy asoslari, talaba yoshlarning fikrlashni tahlil qilish uchun sogʻlom va nosogʻlom fikrlash turlari, sogʻlom fikrlashning oʻziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari, talaba yoshlarni sogʻlom fikr yuritishda pedagogik-psixologik fanlar integratsiyasi asoslangan.

Bu esa talaba yoshlarning sogʻlom fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz maʼnaviy tarbiyani amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Konvensiyasi”da yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash, maʼnaviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, yoshlarda irodaviylik, mafkuraviy immunitet, masuliyatlilik, bagʻrikenglilik, innovatsion fikrlash, sogʻlom dunyoqarash kabi muhim fazilatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish Konseptiyaning asosiy vazifalari etib belgilangan.

Talaba yoshlarda sogʻlom dunyoqarashni rivojlantirish uchun uning shaxsiy tajribasi qiziqishlari, ijtimoiy muhit taʼsiri, pedagogik jarayonning taʼlimiy vatarbiyaviy imkoniyatlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikni nazarda tutgan holda uzviy olib borish muhim hisoblanadi, chunki sogʻlom fikrlash bir tomondan shaxsning oʻzida kechayotgan barcha oʻzgarishlar, jarayonlar mazmunini tushunishga, ikkinchi tomondan esa, jamiyat hayotida sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarning sababini aniqlashi, mohiyatini anglashda va unga nisbatan oʻz fikrlarini sogʻlom ifodalay olishida namoyon boʻladi.

Sogʻlom tafakkur bu- his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sogʻlomlashtiruvchi tafakkurdir.

Nosogʻlom tafakkur bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yigʻindisi boʻlib, u shaxsning oʻzini-oʻzi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional barqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Shaxsning jamiyat aʼzolari bilan munosabatlarga kirishishi ijtimoiy zarurat hisoblangani bois, boʻlajak oʻqituvchilarda sogʻlom fikrlashni rivojlantirishda pedagogik omillarning yetakchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boʻlajak oʻqituvchilarda sogʻlom fikr yuritish oʻziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ega boʻlib, mazkur jarayon samaradorligini taʼminlashda obʼektiv (ijtimoiy muhit) subʼektiv va pedagogik omillar taʼsirini inobatga olish zarur.

Talaba yoshlarda sogʻlom fikr yuritish malakasini shakllantirishda uning individual xususiyatlarini inobatga olish, talaba uchun tanlov erkinligiga imkon berish, hamkorlikdagi faoliyatga ustuvorlik berish, pedagogik taʼsir etishning maqbul usullarini qoʻllash, pedagogik muloqot uslubini tanlashda boʻlajak oʻqituvchilarning yaxlit (uygʻun) muloqot uslubiga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, sogʻlom fikrlashning oʻziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari yaʼni:

- oʻz fikrini tashqi ifodalay olish, yaʼni eksteriorizatsiyaning namoyon boʻlishi;
- fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon boʻlishi;
- fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- fikrlash jarayonida oʻzini-oʻzi ishonitirish va nazorat qilishning yuqoriligi;
- fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uygʻunligini inobatga olish kutilayotgan natija samaradorligiga asos hisoblanadi.

Talaba yoshlarda sogʻlom fikrlash malakalarini rivojlantirishda pedagogika oliy taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan pedagogika va psixologiya tizimidagi fan dasturlarining imkoniyatlari keng hisoblanib, ushbu fanlarni oʻqitishda fanlararo integratsiyasiga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogika oliy oʻquv yurtlarining bakalavriat taʼlim

yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Umumiy pedagogika” va “Umumiy psixologiya”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Psixologiya nazariyasi va tarixi”, “Oila pedagogikasi” va “Oila psixologiyasi”, “Ijtimoiy pedagogika” va “Ijtimoiy psixologiya”, “Pedagogik mahorat” kabi fanlarning na‘munaviy va ishchi dasturlaridagi mavzularni o‘tishda integratie yondashuvga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

Buning uchun **birinchidan**, talabalarda sog‘lom fikr yuritish faoliga nisbatan motivatsion tizimini shakllantirish;

Ikkinchidan, talabalarda shaxsiy va ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni analitik tahlil qilish, unga nisbatan o‘z munosabatini qat‘iy bildirish;

Uchinchidan, o‘ziga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarni qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish;

To‘rtinchidan, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘ziga ijobiy munosabatni shakllantirish;

Beshinchidan, pedagogik jarayondagi xato va kamchiliklarni to‘g‘ri anglay bilish, va uning yechimlarini tanlay bilishga oid refleksiv bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Oltinchidan, shaxslararo munosabatda sog‘lom muhitni yarata olishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni talabalarning ta‘lim-tarbiya jarayonida, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borishda qo‘llanilishi ularda sog‘lom fikr yuritishga doir qonuniyat va tamoyillarga oid nazariy hamda inson ongini rivojlantirishga doir amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom fikr yuritish tarsi namoyon bo‘ladi.

Ushbu jarayonda pedagog tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta‘lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan tinglovchilarga yetkaziladigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyat bu jonli muloqot hisoblanadi. [Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 312-b, 97-bet].

Jonli muloqot jarayoni talaba yoshlarning psixik xolatini o‘rganish, talabani erkin fikr bildirishga o‘rgatish, ziddiyatli vaziyatlarni jamoa bilan birgalikda hal etish, har bir talabaning ichki “meni”ini ro‘yobga chiqarishga imkon berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, shaxslararo muloqot uslubi, hamkorlikdagi faoliyat, ijtimoiy-psixologik qo‘llab quvvatlash kabi ijtimoiy omillar ham sog‘lom fikrlashni rivojlantirishda ustuvorlik kasb etadi.

Talabalarni sog‘lom fikr yuritishga oid malakalarni shakllantirishda ob‘ektiv omillar (oila muhiti, tengdoshlar jamoasi, ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik sharoitlari) bilan birga sub‘ektiv omillar (O‘zlikni anglash, o‘ziga baho berish, o‘z xatti harakatlarini boshqalar bilan taqqoslay olishi, o‘z fikrini erkin bildirish, boshqalarni tinglay olish va ob‘ektiv munosabat bildirish, yosh davriga hos xususiyatlar) ta‘sirini inobatga olgan holda talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish texnologiyalarni shakl, metod va vositalarini tanlash va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi” ro‘g‘risidagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi” to‘g‘risidagi 1059-sonli Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-4676839>

3. Орлов.Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А.В.Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1 - Издание 2-е изд., исправленное, - М.: Солайдинг, 2006-96-с

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 312-b, 97-bet

5. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.- Farg'ona.: "Farg'ona". 2021. 184-b.
6. Махкамов, Ш. С. (2024). Инновационных технологий в систему государственного управления как фактор её развития и совершенствования.
7. Musurmonova O. Milliy qadriyatlar – oila ma'naviyati poydevori. Monografiya. Toshkent.: "Zarvaraq nashriyoti" 2023. 104-b.

TA'LIMDA PEDAGOGIK KVALIMETRIYA METODLARINING QO'LLANILISHI.

Yarlakabov Umirzoq Mamatqulovich
Sambhram universiteti dotsenti,
Fayziqulov Muhammad Normurot o'g'li
Sambhram universiteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya

Ta'lim jarayonida pedagogik kvalimetriya, pedagogik faoliyatda tahsil oluvchilarning ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning ehtiyojlari va o'zlashtirganlik darajasini aniqlash va olingan natijalarga muvofiq ularga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar.

Kalit so'zlar: Kvalimetriya, Pedagogik kvalimetriya, oliy ta'lim muassasalari, ta'lim.

Аннотация

Педагогическая квалиметрия в образовательном процессе, определение возможностей приобретения знаний, умений, умений и компетенций, их потребности и уровня освоения обучающимися в образовательных учреждениях на основе требований, предъявляемых ДТС к предметам. реализация к ним индивидуального подхода в соответствии с результатами.

Ключевые слова: Квалиметрия, Педагогическая квалиметрия, высшие учебные заведения, образование.

Annotation

Pedagogical qualimetry in the educational process, determination of opportunities for acquiring knowledge, skills, abilities and competencies, their needs and the level of mastery by students in educational institutions based on the requirements for DTS subjects. implementation of an individual approach to them in accordance with the results.

Key words: Qualimetry, Pedagogical qualimetry, higher education institutions, education.

Pedagogik kvalimetriya o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o'rin tutadi. Kvalimetriya — tabiatdagi barcha obyektlarning va jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini baholash muammolari hamda metodologiyasini o'rganuvchi fan. U lotincha "quails" - sifat, qadimiy yunoncha "metros" - o'lchov degan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'idir.

Pedagogik kvalimetriya bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarlik darajasining malaka talablariga mosligi, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan muallimlarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikma va malakalari, kasbiy kompetensiyasi(layoqati)ning DTSga mosligi, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati, o'quv rejadan o'rin olgan kurslarning moddiy va didaktik ta'minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

Pedagogik o'lchov metodlari va uning ahamiyati. Pedagog kadrlarning o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi: ekspertiza metodi, tahlil metodi, pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, test topshiriqlari, suhbat